

**YOSHLARNI MILLIY TARBIYA VA QADRIYATLAR ASOSIDA
TARBIYALASHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Karimova Malohat Karimovna

Buxoro shahar 8- maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni milliy tarbiya va qadriyatlar asosida tarbiyalashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari, hamda barkamol shaxsni tarbiyalashda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, milliy urf-odat va an'analarimiz, boy ma'naviy merosimizni kelajak avlod ongiga singdirib borish haqida fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: urf-odat, shaxs, tarbiya, milliy tarbiya, qadriyat, bilim, malaka, ko'nikma, psixologik qonuniyatlar, identifikatsiya.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОГО
ВОСПИТАНИЯ И ЦЕННОСТЕЙ**

Аннотация. В данной статье освещаются социально-психологические особенности воспитания молодежи на основе национального воспитания и ценностей, а также размышления и размышления о применении современных инновационных педагогических технологий в воспитании гармоничной личности, интеграции в сознание будущих поколений наших национальных традиций и обычаев, богатого духовного наследия.

Ключевые слова: традиция, личность, воспитание, национальное воспитание, ценность, знания, умения, навыки, психологические закономерности, идентичность.

SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE

**EDUCATION OF YOUNG PEOPLE ON THE BASIS OF NATIONAL
EDUCATION AND VALUES**

Annotation. This article covers the social psychological features of educating young people on the basis of National Education and values, as well as the use of modern innovative pedagogical technologies in the education of a harmonious personality, ideas and reflections on the absorption of our national traditions and traditions, our rich spiritual heritage into the minds of the future generation.

Key words: tradition, personality, upbringing, national upbringing, value, knowledge, qualifications, skills, psychological laws, identification.

Kirish. Yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalo, yoshlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni also unutmasligimiz lozim.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini va talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik talabini asos qilib oladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham bola tarbiyasi haqida bir qancha qimmatli fikrlarni bildirgan. Boburning ta'lim–tarbiyaviy qarashlaridagi bosh masala Vatanga cheksiz muhabbatdir. Bobur farzand tarbiyasida qo'llanilishi lozim bo'lgan usullar sifatida quyidagilarni sanab o'tadi:

1. Ota-onaning farmoni farzand uchun vojibli.
2. Barcha insonlarga yaqinlikni o'rgatish.
3. Har bir paytda o'zingizni ibrat aylab ko'rsatish.
4. Mustaqillik, qat'iylik va uddaburonlik uchun bolaga doimiy talablarni qo'yish va uning ijrosini kuzatish.

XIX asrning o'rtalariga kelib mustaqil yashagan Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, yurtimiz imperiyaning mustamlakasi bo'lib qoldi. Mustamlakachilarning qadriyatlari va qadrlash mezonlari xalqimiz orasiga zo'rlik bilan singdirila boshlandi. Va aynan shu sababli XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda “jadidlar” oqimi vujudga keldi. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir. ”Ma'rifat” tushunchasining lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Yoki kishilar bilimi, ma'naviyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Mahmudxo'ja Behbudiy,

Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abduqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Said Aziziy, Ahmad Donish, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Tavallo, Sadridin Ayniy, So'fizoda, Fitrat va boshqa jadidlar merosiga diqqat qilinsa, o'sha davrda yurtimizda ma'naviy tushunchalarning ko'lami qanchalik keng bo'lganligini, falsafiy tilning naqadar boyligini, uning adabiyot bilan qanchalik uyg'unligini yaqqol ko'rish mumkin. Ularning asarlarida gohida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki, dilimizdan ham chiqarib yuborgan qadriyatlar, tushunchalarga duch kelamiz. Jadidlar XIX asrning ikkinchi yarmida mamlakatni milliy zulm va qoloqlikdan qutqarishning yagona yo'li xalqni ma'rifatga erishtirish deb tushunib, shu yo'l orqali ozodlik uchun kurash olib bordilar. Ular erkinlikka erishish yo'lida milliy ong va o'zlikni bilishni o'stirish zarur, deb ta'kidlaganlar.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar va asosli psixologik qonuniyatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik qonuniyatlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra moddiy va milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'linadi.

1.Moddiy qadriyatlar — inson mehnati, aql-zakovati bilan yaratiladigan turli-tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish kuchlari, noz-ne'mat va shu kabilardir. Moddiy qadriyatlar asosini – jamiyatning moddiy texnika

bazasi, negizini esa mulk tashkil qiladi.

2. Milliy-ma'naviy qadriyatlar — muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan, ma'naviy boyliklari, amallar va tamoyillar, g'oyalardir. Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qiymatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avlod-dan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham u o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixoriga aylangan durdonalardir. Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati, adabiyoti, tili bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, an'analari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi.

Hech kimga sir emaski, bugungi kun bolalari o'zlarining yigirma yil oldingi tengdoshlaridan farq qilishadi. Yoshlar tarbiyasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy illatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

Birinchi o'rinda, har bir yosh davrining o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini hisobga olish lozim.

Ikkinchi o'rinda, tarbiyada sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak.

Uchinchi o'rinda, psixologik rivojlanishni me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir.

Yoshlarda sog'lom e'tiqodni qaror toptirish murakkab jarayon bo'lib, u bir qator moddiy hamda ma'naviy omillar ta'sirida vujudga keladi. Yoshlarda sog'lom fikrlashni shakllantirish muammosida ijtimoiy munosabatlar mazmun jihatdan chuqurlashib va murakkablashib borayotgan bir sharoitda quyidagi omillar yetakchi o'rinni egallaydi:

- ✓ yoshlarning moddiy ta'minoti;
- ✓ yoshlarning vaqtdan unumli foydalanish borasidagi tajribaga egaligi;
- ✓ yoshlarning maishiy turmush darajasi;
- ✓ yoshlarning fiziologik va psixologik xususiyati;
- ✓ yoshlarning qiziqishi bilan ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- ✓ yoshlarning ijtimoiy kelib chiqishi va hayotiy faoliyati o'rtasidagi mutanosiblik;
- ✓ ota-ona ruhiy xususiyatlarining bir-biriga uyg'un kelishi;
- ✓ farzandlar tarbiyasini tashkil etishda yagona yondashuvning qaror topishi;
- ✓ oilada mehnat taqsimotining adolatli qaror topishi;
- ✓ oila a'zolarining diniy ma'lumotlilik darajasi;
- ✓ oila a'zolari o'rtasidagi yagona hayotiy maqsadning mavjudligi.

Hozir dunyoda hukm surayotgan mafkuraviy bo'ron mustaqillik yillarida bizning yurtimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Fuqarolarimiz ongidagi g'oyaviy sarosimalik holatidan foydalangan bir qancha siyosiy ekstremistik guruhlar o'zlarining yovuz maqsadlariga erishish uchun O'zbekistonga nisbatan g'oyaviy xuruj boshladilar. Bu ishda esa ekstremistlarning asosiy diqqat e'tibori yoshlarimiz ongini yovuz g'oyalar bilan zaharlashga qaratildi.

Xulosa. Milliy tarbiya va qadriyatlar va ularni tashkil qiluvchi omillar haqida so'z yuritildi, shuningdek, milliy tarbiya va qadriyatlarning shaxs tarbiyasidagi ta'siri haqida sharq mutafakkirlarining fikrlari bayon qilindi. Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. – Toshkent. "O'zbekiston", 2017 yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent "O'zbekiston", 2017 yil.
3. E.Karimova – "Tolerantlik va hozirgi zamon" – Toshkent: 2008 yil.
4. Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov – "Psixologik xizmat" – Toshkent: 2014 yil.

Internet saytlari:

<http://www.Brothers.com>

<http://www.Psixologiya.uz>

<http://www.psypost.org>

<http://www.Ziyonet.uz>

<http://www.wikipedia.org>